IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ ДАВЛАТНИНГ ЭНГ МУҲИМ ВАЗИФАСИДИР

Тажибаев Ботир Каримбаевич
подполковник Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар Академияси Ҳарбий хавфсизлик ва давлат мудофааси факултети, Давлат ва ҳарбий бошқарув курси тингловчиси.

Annotatsiya
Korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Ammo bu korrupsiya hammayoqda bir xil degani emas. Shu bois korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishning universal ma’muriy-huquqiy vositalarini ishlab chiqishning real imkoniyati mavjud emas.

Kalit so‘zlar
Jamiyat hayoti, fuqarolik jamiyati, korrupsiya, inson e’tiqodi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, elektron hukumat.

Abstract
This article focuses on the problem of corruption, which is one of the most acute today. Corruption acts as a prophet, directly influencing the development of society. The article highlights the legal basis for its prevention and elimination, the large-scale reforms being carried out. Thus, this article analyzes not only national experience, but also foreign experience and practice.

Keywords
Corruption, strategy, progress, legality, globalization, intelligence, official.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxasislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak. Korrupsiya bilan xech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev.

Biz korrupsiyani shaxsiy manfaatlar uchun ishonib topshirilgan hokimiyatni suiste'mol qilish deb ta'riflaymiz.

Korrupsiya ishonchni yo'qotadi, demokratiyani zaiflashtiradi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi va tengsizlik, qashshoqlik, ijtimoiy bo'linish va ekologik inqirozni yanada kuchaytiradi.

Korrupsiyani fosh qilish va korrupsiyaga ga uchraganlarni javobgarlikka tortish faqat korrupsiyaning qanday ishlashini va uni ta'minlovchi tizimlarni tushunsakgina amalga oshadi.

Korrupsiya turli shakllarda bo'lishi va quyidagi xatti-harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- davlat xizmatchilari xizmat ko'rsatish evaziga pul yoki moddiy vosita talab qilish yoki olishi;
- siyosatchilar davlat pullarini suiste'mol qilish yoki o'z homiylari, do'stlari va oilalariga davlat ishlari yoki shartnomalar berish;
- korporatsiyalar mansabdor shaxslarga foydali bitimlar olish uchun pora berishi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Korrupsiya hamma joyda sodir bo'lishi mumkin: biznesda, hukumatda, sudlarda, ommaviy axborot vositalarida, fuqarolik jamiyatida, sog'liqni saqlashda, shuningdek ta'limdan tortib infratuzilma va sportgacha bo'lgan barcha sohalarda.

Korrupsiyaga har kim: siyosatchilar, davlat amaldorlari, davlat xizmatchilari, ishbilarmonlar yoki jamoatchilik vakillari jalb qilinishi mumkin.

Korrupsiyani sodir bo‘lishi, ko'pincha bankirlar, advokatlar, buxgalterlar va ko'chmas mulk agentlari, noaniq moliyaviy tizimlar va korruptsion sxemalarning rivojlanishiga va korruptsionerlarga noqonuniy boyliklarini yuvish va yashirishga imkon beruvchi professional yordamchilar yordamida sodir bo'ladi.

Korrupsiya turli kontekstlarga va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashadi. U qoidalar, qonunchilik va hatto texnologiyadagi o'zgarishlarga javoban rivojlanishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun biz shaffoflikni qo'llashimiz kerak.
Shaffoflik - bu kim, nima uchun, nima, qanday va qancha ekanligini bilishdir. Bu rasmiy va norasmiy qoidalar, rejalar, jarayonlar va harakatlarni yoritishni anglatadi. Oshkoralik bizga, jamoatchilikka umumiy manfaatlar uchun barcha kuchlarni ushlab turishga yordam beradi.
Axborot izlash va olish inson huquqi bo'lib, korrupsiyaga qarshi himoya vositasi bo'lib, qaror qabul qiluvchilar va davlat institutlariga ishonchni oshiradi. Biroq, shaffoflik nafaqat ma'lumotni taqdim etish, balki undan fuqarolar tomonidan oson foydalanish, tushunish va foydalanishni ta'minlashdir. Lekin oshkoralik korrupsiyaga chek qo'yishning birinchi qadamidir. Biz o‘ttiz ikki yildan ortiq tajribamizdan bilib oldikki, korrupsiyani faqat hukumat, biznes va fuqarolik jamiyati vakillari umumiy manfaatlar yo‘lida birgalikda ishlasagina nazorat ostiga olish mumkin.
Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida eng zararli hodisalardan biri korrupsiyadir (lotincha corrumpere - buzib tashlamoq). Hokimiyatni shaxsiy manfaat uchun suiste'mol qilish qadim zamonlardan beri insoniyatga hamroh bo'lib kelgan. Tarix bu yovuzlikka (ba'zan o'ta shafqatsiz) qarshi kurashning ko'plab misollarini bilishiga qaramay, afsuski, u haligacha bartaraf etilmagan. XXI asrda korrupsiyaga istisnosiz barcha mamlakatlarga xos bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.
Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar zamonaviy davlatlarga katta moddiy zarar yetkazadi. Har yili dunyo pora uchun 1 trillion AQSh dollari sarflaydi. Bu ma’lumotlar Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuniga (9-dekabrda nishonlanadigan) tayyorlangan. Ushbu ko‘rsatgichlar BMTning 2023 yilgi statistika ma’lumotlarida ko‘rsatib o‘tilgan. Korrupsiya natijasida davlatlar har yili 2,6 trln. AQSh dollari – jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foiziga teng miqdor sarflanadi, demak rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiya tufayli yo'qotishlar rasmiy yordam sifatida ajratilgan mablag'dan 10 baravar ko'pdir.
Yevropa komissiyasi korrupsiyaga Yevropa iqtisodiyotiga har yili 120 milliard yevro zarar yetkazadi, deb da'vo qilmoqda. Yevropa firibgarlikka qarshi byurosi (OLAF) ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari har yili korrupsiyadan 323 milliard yevro yo‘qotishadi.
II jaxon urishida SSSR g‘olib davlat, Germaniya esa mag‘lub bo‘lgan davlat edi. Lekin xozirgi vaqtda dunyoning eng rivojlangan davlatlari ro‘yxatida o‘sha mag‘lub davlat Germaniya xam bor. Ular qanday qilib bu darajaga erishdi degan savol tug‘ilishi tabiiy hol. Kundalik xayotimizda bir so‘zli, birovni xaqini yemaydigan va o‘z haqini birovga yedirmaydigan insonlar xaqida gapirganda “bu odam nemis” aytganini qiladi deb tarif beramiz. Shundan ko‘rinib turibdigi Germaniya II jaxon

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

urishidagi mag‘lubiyatidan keyin davlatni oyoqqa turg‘izishi va rivojlanishi uchun qilgan eng katta ishi bu qatiiy tartib intizomni yo‘lga qo‘yishi bo‘ldi. Qaerdaki qonunga xurmat va tartib intizom bo‘lsa o‘sha yerda albatta rivojlanish bo‘lishiga Germaniya davlati misol bo‘la oladi. Mamlakatimizda korrupsion jinoyatlarning oldini olish uchun avvalo yoshlarimizda xam dunyoviy xam diniy dunyoqarashni to‘g‘ri shakillantirib tarbiya berishimiz lozim deb o‘ylayman. Dunyoviy bilim deganda biz xuquqiy savodxonlikni oshirish, xar bir fuqaro o‘zining xuquqiy burchi, vazifasi va majburiyatlarini bilishi, qonunlarni, qaror va farmonlarni to‘g‘ri taxlil qila olishini tushunishimiz lozim. Diniy bilim deganda xalol va xarom tushunchalarini farqlay olishimiz lozim. Kattalar yoshlarga yaxshi tarafdan o‘rnak bo‘lishi kerak. Bunga qanday erishish mumkin? Maqola avvalida Finlandiya davlati xaqida so‘z ochgandim. Bu davlatda nima uchun korrupsiya yo‘q. Sababi oddiy Finlandiyaliklarda o‘zbekcha usullar yo‘q. Masalan ular gaz, elektr energiya, soliq, kommunal to‘lovlardan qarzdor bo‘lib qolsa nazoratchini chaqirib qarzdorlik summasini yarmini berib qarzdorlikni bekor qilib bering aka deyishmaydi. O‘zlari vaqtida bankka borib to‘lashadi. Shifokorlari xuzuriga kelgan bemorlardan pul olishni emas ularni davolashni ko‘proq o‘ylaydi. Ota-onalari farzandlarini hoxishiga qarshi chiqib o‘qishga pul bilan yoki tanish bilishlari orqali kiritishni emas, ularnining kelajakda yaxshi inson bo‘lishi, o‘zlari qiziqqan biror bir kasb egasi bo‘lishi uchun sharoit yaratib berishni o‘ylashadi. Sudyalari qilingan jinoyat uchun pora olib ishni bosdi-bosdi qilishni emas, boy bo‘ladimi, kambag‘al bo‘ladimi xaqiqiy aybdorni topishni va kerakli darajada jazo tayin qilishni o‘ylashadi. Domlalari talabalarga yaxshi bilim berolmasdan pul olishni emas, ularga yaxshi bilim berib, jamiyat rivojiga xissa qo‘shadigan kadrlarni yetkazib berishni ko‘proq o‘ylashadi. Xalqi dabdabali to‘y qilish uchun xaloldanmi, xaromdanmi pul topib isrofgarchilikka yo‘l qo‘yishni emas, davlat va jamiyat manfaati uchun xizmat qilishni, qonunlarni buzmaslikni, ularga bo‘ysunishni, o‘zlarining fuqarolik burchlarini to‘liq bajarishni ko‘proq o‘ylashadi. Aytib o‘tgan gaplarim kimlarningdir g‘ashini keltirishi mumkin, lekin bu xaqiqat. Xamma narsaga ko‘z yumib ketadigan vaqtlar o‘tdi. Men davlatimizda amalga oshirayotgan isloxotlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman va ularni amalga oshirilishi uchun qo‘limdan kelgan barcha ishni qilishga tayyorman. Yunon faylasufi Gelvitsiy aytganidek “Tabiatni xarakatlar, jamiyatni manfaatlar boshqaradi”. Biz xalq manfaati, mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida birlashsak, prezidentimiz olib borayotgan siyosatni to‘liq qo‘llab quvvatlasak, jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi zararli illatlarga qarshi birgalikda kurashsak albatta niyatimizga yetamiz. Men ishonamanki bizning jonajon O‘zbekistonimiz xam albatta dunyoning eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy oladi.

XULOSA

Korrupsiyani oldini olmasdan turib barqaror taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi aholining huquqiy savodxonligi, ma’naviyati, axloq-odobi va demokratiya prinsiplariga qanchalik amal qilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Korrupsiyaga qarshi ma’rifat - insonda bilim, immunitet, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda oliy maqsadga mos keluvchi barqaror xulq-atvor me’yorlarida o‘z aksini topgan tegishli ma’naviy-axloqiy ehtiyojlar, vijdon, insof, iymon, e’tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, ular quyidagicha:

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shartsharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Bugungi kunda hayotning o‘zi korrupsiyaga qarshi ma’naviyat va ma’rifat bilan kurashishni talab etmoqda. Jamiyatdagi mavjud illatlarga, jumladan korrupsiyaga qarshi kurash va unga murosasiz munosabatda bo‘lish korrupsiyaga qarshi ma’rifatning o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z nafsining quliga aylangan, o‘z manfaatini davlat va jamiyat manfaatidan ustun qo‘yadigan har bir kishi korrupsiya domiga ilinishi muqarrar. Ma’naviyati yetarli darajada shakllanmagan kishilar ertami-kechmi axloqiy tubanlikka yuz tutadilar. Aynan shunday muhit korrupsiyani shakllantiruvchi omil ekanligi hech kimga sir emas.

Adabiyotlar:

1. Akhatov, L.K., Rasulov, A.N., Mirzorakhimov, O.K., Sharipov, M.L., & Ibrokhimov, F.A. (2020). The Outlookings of Religious and Sufism in Teaching of Abdurakhman Jami. Journal of Critical Reviews, 7(17), 112-116.
2. Koshanova, N. M. (2020). Oila va murabbiy manfaatli hamkorligining talim sifatini oshirishdagi ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 32-41.
3. Sharipov, M. L. (2020). Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda Husayn Voiz Koshifiy axloq falsafasining ahamiyati. Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘, 1(1), 94-98.
4. Sharipov, M. (2020). Tarixni o‘zgartirgan buyuk sohibqiron. Tamaddun nuri, 2(25), 14-17.
5. Mardonov, S., Toshtemirova, S., Ahmadjonov, B., & Koshanova, N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. International Journal of Psychological Rehabilitation, 24(7), 8104-8111.

WORDLY KNOWLEDGE